

Kitob - tafakkur qanoti

Kitob insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e'tiborga loyiq ko'rinishidir. Kitoblarda kechmish zamonlarning aql-idroki yashaydi. Insoniyat yaratgan, qayta-qayta o'ylab ko'rgan va u erishgan narsalarning bari - xuddi sehrli sandiqday kitoblar sahifasida saqlanib qolgan. 05.03.2021 yilda 4 - TTJda o'tkazilgan tadbir aynan shu jumlar bilan boshlandi.



Tadbirni Hidrologiya va gidrogeologiya kafedrasida professor-o'qituvchilari tashkillashtirdi. Tadbirda kafedra mudiri D.V.Nazaraliev so'zga chiqib kitob inson moddiy va ma'naviy ta'minotchisi ekanligini, kitob fikrlash qobiliyatimizni harakatga keltiruvchi ixchamgina qurolligi, u aqliy tanballigimiz bilan kurashishimizda bizga ko'maklashuvchi tafakkur quvvati ekanligi haqida aytib o'tildi. Tadbir davomida o'z fikr-mulohazalari bilan aktiv ishtirok etgan talabalar rag'batlantirildi.

"Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida o'qituvchisi Q.Sh.Eshqovatov axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati